

## GLOBALLASHUV SHAROITDA URBANIZATSIYALASHUVNING FAOLLASHUVI VA QONUNIYATLARI

**Bozorqulova Munavvar Chori qizi**

*Termiz davlat unversiteti Tabiiy fanlar fakulteti geografiya Ta'lim yo'nalishi  
geografiya mutaxxasisligi 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Bugungi globallashuv jarayonida migratsiya va urbanizatsiya masalasi tobora dolzarblik kasb etib bormoqda. migratsiya jarayoni muayyan vaqtlarda kuchayib-pasayish tendensiyasiga ega bo'lib, ma'lum hudud, mamlakat, mintaqa ijtimoiy hayotiga o'zining ijobiy, salbiy, kerak bo'lsa, siyosiy ta'sirini o'tkazadi. Shu boisdan ham migratsiya jarayonini huquqiy tartibga solish, uni boshqarish masalalari alohida e'tibor talab qiladi.*

**Kalit so'zlar:** *globallashuv jarayoni, migratsiya masalasi, fuqarolarning huquqlari, manfaatlari, globalizatsiya va integrasion jarayonlar, fan, texnika, texnologiya, zamonaviy kommunikatsiyalar*

**Аннотация:** *В сегодняшнем процессе глобализации проблема миграции и урбанизации становится все более важной. миграционный процесс имеет тенденцию к усилению в определенные периоды времени и оказывает положительное, отрицательное, при необходимости, политическое влияние на социальную жизнь того или иного региона, страны, региона. Поэтому вопросы правового регулирования и управления миграционным процессом требуют особого внимания.*

**Ключевые слова:** *процесс глобализации, проблема миграции, права, интересы граждан, процессы глобализации и интеграции, наука, технологии, современные коммуникации.*

**Abstract:** *In today's globalisation, the issue of migration and urbanization are becoming increasingly relevant. the process of migration has a tendency to decline at certain times and has its own positive, negative, if necessary political impact on the social life of a certain region, country, region. Therefore, the legal regulation of the migration process and its management require special attention.*

**Keywords:** *the process of globalization, the issue of migration, the rights, interests of citizens, globalization and integration processes, science, technology, modern communications.*

### KIRISH

XIX asr oxiri va XX asr boshida olimlar tilida globallashuv degan jumla paydo bo'ldi. Globallashuv insoniyat aql-zakovati, iqtidori va tinmay amalga oshirilgan mehnati evaziga fan, texnika, texnologiya, zamonaviy kommunikatsiyalar tizimida harakatga kelayotgan jarayon bo'lishi bilan bir vaqtda, ana shu omillarning ne'mati hamdir. Chunki insoniyat ham o'z taraqqiyoti tarixida erisha olmagan yutuqlarni bugun uning imkoniyatlaridan samarali foydalangan holda qo'lga kiritmoqda. Lekin

shunisi aniqki, yuqorida qayd etilgan yutuqlar bugungi taraqqiyotga qanchalik ijobiy ta'sir o'tkazayotgan bo'lmasin, uning "ommaviy ma'naviyat"ni shakllantirishi va uni taraqqiyot yo'liga kirib borayotgan millatlar milliy ma'naviyatiga singdirishga o'tkazayotgan ta'siri bilan solishtirsa, inqirozning toshi og'irlashib borayotganligi kuzatiladi. Albatta, bir tomondan qaraganda, bu jarayonning ijobiy jihatlari ham yo'q emas.

Chunonchi, ko'pgina mamlakatlarga fan-texnika, texnologiya yutuqlarining jadal kirib kelishi globallashuv tufayli. Bu esa ularning iqtisodiy hayoti rivojiga, xalqlar turmush darajasining ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu tariqa bashariyatning umumiy intellektual salohiyati yuksalishiga yordam bermoqda. Shuningdek, bugungi kunda xalqaro migratsiya ichki migratsiyaga nisbatan kuchli oqimlarni hosil qilib, bir tomondan norasmiy mehnat migratsiyasi ulushi oshib borsa, ikkinchi tomondan, majburiy tashqi migratsiya saldosi o'smoqda. Natijada, qabul qiluvchi mamlakatlar, migrantlarning nisbatan o'jiz qatlamlari sanalgan ayollar va bolalarni joylashtirish va ular uchun zaruriy ijtimoiy shart-sharoitlarni yaratib berishda moliyaviy muammolarga duch kelmoqda.

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI**

O'zbekistonda ko'rilayotgan muammoning geografik jihatlari 1960-70-yillarda shaharlarning tez rivojlanishi bilan bog'liq holda I.Smirnov, T.Raimov, O.Ata-Mirzaev, A.Soliyev, A.Qayumov va boshqalar tomonidan o'rganilgan[3-5 b]. Shuningdek, alohida mintaqalar doirasida T.Mallaboev, Sh.Imomov, Z.Raimjonovlarning ilmiy ishlarini keltirish ўринли. Mustaqillik davrida H.Tursunov, Z.T.Abdalova, M.Erdonov, S.K.Tashtayeva, M.Egamberdiyeva, A.Mavlonov, P.Qurbonov va boshqalar o'z ilmiy tadqiqotlarini olib borganlar.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

O'zbekiston Respublikasi urbanizatsiyalashish darajasi bo'yicha Jahonda 203 ta davlatning ichida 155-o'rinda turadi. Bu ko'rsatkich esa o'z navbatida aholining shaharlarda yashash ko'rastkichi bilan bir ma'noni bildiradi. O'zbekiston Respublikasining urbanizatsiyalashish ko'rastkichi esa jahondagi davlatlar orasida ancha ortda qolib ketganini bildiradi.[4,210-211 b]. Urbanizatsiya murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayon bo'lib, u barcha jabhalarni qamrab oladi va shu bilan birga, turli mamlakatlarda turlicha namoyon bo'ladi. Uning hududiy hususiyatlari joyning geografik o'rni, tabiiy sharoiti va resurslari, demografik vaziyati, iqtisodiyotining tarmoqlar tarkibi va ixisoslashuvi, transporti, geoekologik holati va boshqa ichki va tashqi, obyektiv va suyektiv omillar ta'sirida shakllanadi.

Shaharlarni rivojlantirmasdan jamiyat, mamlakat va mintaqalar taraqqiyotini tasavvur qilish qiyin. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi aholisining 50,8% shahar, 49,2% qishloqlarda istiqomat qiladi. Bu esa o'z navbatida mamlakatning urbanizatsiya darajasini ko'rsatadi, yani urbanizatsiya ko'rastkichi 50,8% ni tashkil qiladi. O'zbekiston Respublikasida 2021-yil 1-yanvar holatiga 120 ta shahar va 1067 ta shaharcha mavjud bo'lgan. Ularda 17144,1 ming kishi istiqomat qilgan, qishloq aholi manzilgohlarida esa 16761,1 kishini tashkil etgan[8]. Agar o'tgan

bosqichda (2009- yilgacha) urbanizatsiya darajasiga ko'ra Qoraqalpog'iston Respublikasi, Navoiy va Toshkent viloyatlari yetakchilik qilgan bo'lsa, so'ngi davrda aholi soni ko'p va zich yashagan Farg'ona vodiysiga almashdi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Hududlarda urbanizatsiya jarayoni tahlillari shunu ko'rsatadiki, viloyatlarda turlicha ekanligi bilan bir-biridan farq qiladi. Shu asosda Respublika hududlarini urbanizatsiya darajasiga qarab 4 guruhga ajratildi. Ushbu guruhlarga ajratishda mezon sifatida O'zbekiston Respublikasi viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasining urbanizatsiya ko'rsatkichi asos qilib olingan. O'zbekistonning urbanizatsiya darajasini yuqorida ta'kidlanganidek 50,8% ni tashkil etadi.

### **XULOSA VA TAKLIFLAR**

Yuqoridagi taxlillar shularni ko'rsatmoqdagi, O'zbekistonda geourbanistikjarayonlarda shaharlarni riojlanishi asosan tarkibiy o'zgarishlar, ularning hududlarini kengaytirish va qisman ichki migratsiya orqali kechmoqda. Urbanizatsiya darajasining salmog'ida shaharlar ulishi yuqori bo'lishi kerak. Mamlakatimizda shaharlar soni keyingi yillarda deyarli o'zgarmasdan qolmoqda. Lekin shaharchalarning ichida shaharsozlik kodeksiga asosan 7 mingdan ortiq bo'lgan bir qancha shaharchalar mavjud. Ulardan 78 tasi tuman markazi funksiyasini ham bajaradi. Mana shu 78 ta shaharchadan 42 tasi sanoat ishlab chiqarish hajmi va aholining bandlik darajasida noqishloq ho'jaligida band hisoblangani uchun, mazkur shaharchalarda shahar maqomini berish maqsadga muvofiq.

### **FOYDALANILGAN ABIYOTLAR:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi PF 5623-sonli "Urbanizatsiya jarayonini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" Farmoni.

2. Soliev A. Nazarov M. Qurbonov Sh. O'zbekiston hududlari ijlimoiy – iqtisodiy rivojlanishi. -T .: "Mumtoz so'z, 2010.

3. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K, Egamberdieva M.M. Shaharlar geografiyasi.o'quv qo'llanma.- T., "Vneshinvestprom", 2019.

4. Tashtayeva S.K., Yokubov O.Y. Problems of urbanization development in Uzbekistan. Proceedings of Global Technovation 2nd International Multidisciplinary Scientific Conference.- London, U.K., 2020. 210-211p.

5. Tashtayeva S.K., Qosimov X.S. Farg'ona mintaqasi turistik koridori shaharlarining rivojlanish imkoniyatlari // "Zamonaviy geografik tadqiqotlarda hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy va innovatsion rivojlanishi, tabiatdan oqilona foydalanish va turizm masalalari". Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Nukus, 2021. 113-116 b.

6. Qosimov X.S. Farg'ona mintaqasi shaharlari funksiyalarini takomillashtirish masalalari // "Kompleks geografik tadqiqotlar: innovatsiya va amaliyot" Respublika ilmiy-amaliy konserinseyasi materiallari.- Andijon, 2022. 82-87 bet.